

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

**МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA JISMONIY TARBIYA
MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA QO'LLANILADIGAN TA'LIM METODLARI
10.53885/edinres.2022.59.98.066**

Nurullayev Abdurashid Ro'zimboyevich

“Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti” kafedrası o'qituvchisi.

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida qo'llaniladigan ta'lim metodlari bolalarda harakat ko'nikmalari, malakalari va jismoniy mashqlar haqidagi bilimlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim berish jarayonida ta'limning zamonaviy usullaridan keng foydalanish to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, Jismoniy tarbiya, Ta'lim, mashg'ulot, malaka, ko'nikma, harakat, mashq, metod.

**ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ МЕТОДЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ
ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ
УЧРЕЖДЕНИЯХ**

Нуруллаев Абдурашид Рузимбоевич

Преподаватель кафедры теории и физической культуры.

Бухарский государственный университет

Аннотация. В статье рассматриваются методы обучения физической культуре в дошкольных организациях, широкое использование в образовательном процессе современных методов обучения, что имеет важное значение в формировании у детей двигательных навыков, умений и знаний о физических упражнениях.

Ключевые слова: Дошкольное воспитание, Физическое воспитание, Воспитание, обучение, квалификация, умение, движение, упражнение, метод.

**EDUCATIONAL METHODS USED IN ORGANIZATION OF PHYSICAL EDUCATION
IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

Nurullayev Abdurashid Ruzimboyevich

Lecturer at the Department of Theory and Methods of Physical Culture.

Bukhara State University

Annotation. The article discusses the methods of teaching physical education in preschool organizations, the widespread use of modern teaching methods in the educational process, which is important in the formation of children's motor skills, abilities and knowledge of exercise. thought about.

Keywords: Preschool education, Physical education, Education, training, skills, abilities, movement, exercise, method.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bolalarda harakat harakat ko'nikmalari, malakalari va jismoniy mashqlar haqidagi bilimlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim berish shaklidir. Bolalar jismoniy tarbiya mashg'ulotlari davomida “Ilk qadam” dasturi talablari asosida har bir chorak, hafta va kunlarga belgilangan jismoniy harakat turlarini mukammal o'rganib, mustahkamlab va takomillashtirib boradilar.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari samarali va metodik jihatdan to'g'ri o'tkazilishi uchun maktabgacha ta'lim muassasasi xodimi-tarbiyachi o'ta bilimli, tajribali va metodik jihatdan qurollangan bo'lishi lozim. Har bir mashg'ulot to'g'ri rejalashtirilgan, mashg'ulot ishlanmasi oldindan tuzilgan va maktabgacha ta'lim muassasasi metodisti bilan uslubiy jihatdan maslahatlashilgan holda tashkil etilishi kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari sport zalida yoki sport maydonchasida o'tkaziladi. Mashg'ulot o'tish joyi gigienik va metodik talablarga javob beradigan toza va ozoda saqlanadi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida ishtirok etuvchi bolalar tibbiyot xodimi nazoratidan o'tgan, sog'lom va sport kiyimlari (futbolka, shortik, sport oyoq kiyimi) kiygan xolatda mashg'ulotlarda ishtirok etadi.

Mashg'ulotda ishtirok etish jarayoni, mashg'ulotni tashkil etish va boshqarib borish tarbiyachidan yetarli darajada ta'limiy metodlari qo'llashni talab qiladi.

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

Jismoniy mashqlarni mashg'ulotlar uchun tanlash dastur asosida tuziladigan ish reja bo'yicha belgilanadi. Muayyan guruh bolalari yoshini, har bir bolaning salomatligini, umumiy rivojlanish darajasini hisobga oluvchi kalendar rejalar bolalar tomonidan egallangan xarakat ko'nikmalari, bolalarning individual xususiyatlari, yil fasli, mashg'ulotlarni o'tkazish sharoiti, shuningdek, bolalarning avvalgi faoliyatini hisobga olishdan kelib chiqqan holda mashg'ulot vazifalari va aniq jismoniy mashqlar belgilanadi [2].

Navbatdagi mashg'ulot rejasi ishlab chiqishda oldingi mashg'ulotni sinchiklab analiz qilish qo'l keladi. Analiz jarayonida oldingi mashg'ulotda qo'yilgan vazifalarning amalga oshirilgan darajasi, bolalar reaksiyasida namoyon bo'ladigan va mashg'ulotni hisobga olishda qayd etiladigan natijalar aniqlanadi.

Oldingi va keyingi mashg'ulotlar o'rtasidagi uzviy aloqa, umumiy maqsadga yo'nalganlik mukammal tizimni ta'minlaydi. Bu tobora murakkablashib boradigan vazifalarni bajarishdagi aniq izchillikni, va shu asnoda har bir yosh guruhidagi bolalar ta'limining natijalari muvafaqqiyatli bo'lishini belgilaydi. Oldingi mashg'ulot analizi asosida avvalo mashg'ulot asosiy qismining vazifalari: bolalarni yangi mashqlarga o'rgatish; oldindan tanish mashqlarni takrorlash va takomillashtirish (aniq jismoniy mashqlar ko'rsatiladi) belgilab olinadi. Shundan so'ng mashg'ulotning kirish va yakunlovchi qismiga mo'ljallangan mashqlar aniqlanadi.

Tarbiyachi, ayniqsa yetarli tajribaga ega bo'lmagan tarbiyachi dasturda berilgan metodik tavsiyalardagi jismoniy mashqlarni rejasidan foydalanishi mumkin. Ushbu tavsiyalarga ijodiy yondoshgan holda o'z guruhidagi aniq sharoitga muvofiq rejaga zarur o'zgartirishlar kiritish mumkin. Ayni paytda mazkur ko'rsatmalar unga bolalarni dasturga ko'ra jismoniy mashqlarga tizimli o'rgatishda yordam beradi.

Tarbiyachi bolalarni uyushtirishning frontal, guruhviy, individual kabi turli usullardan foydalanadi.

Frontal usullardan foydalanilganda bolalarga barcha uchun bir xil tarzda, bir vaqtda bajariladigan mashqlar beriladi. Frontal usulni mashg'ulotning istalgan qismida, ayniqsa bolalarni yangi mashqlarga o'rgatishda yoki allaqachon tanish mashqlarni takomillashtirishda qo'llashi maqsadga muvofiqdir. Bu usul bolalarda harakat uyg'unligini tarbiyalashda, ularni barcha uchun barobar vazifalarni hal etishga birlashtirishda, tarbiyachining bolalar bilan bevosita aloqaga kirishishida, shuningdek mashg'ulotlarning zichligini oshirishda samaralidir.

Bolalar mashg'ulot qisimlarini o'rganish va aniqlash jarayonida navbati bilan harakat qiluvchi unga katta bo'lmagan guruhga bo'linishi mumkin. Bunda tarbiyachi mashqning bir yoki ikki guruh tomonidan bajarilishini kuzatib borish imkoniyatiga ega bo'ladi, qolgan bolalar esa o'z o'rtoqlari harakatlarini kuzatadilar va tarbiyachini tinglaydilar.

Bundan tashqari mashqlarni potok usulida bajarishdan ham foydalaniladi, bunda barcha bolalar aynan bir mashqni navbatma-navbat, birin ketin, to'xtovsiz – potok usulida bajaradilar. Mashqlarni keng ko'lamda takrorlash uchun ularni bajarish ikki va uch guruhda tashkil etilishi mumkin. Jismoniy mashqlarni potok usulida bajarish usulini katta va tayyorlov guruh bolalariga nisbatan qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu usulning mashqlarni takomillashtirishdagi alohida ahamiyatga molikligi va ularni o'rganishda esa kam ahamiyatga ega ekanligini qayd etib o'tmoq lozim: potok harakatning to'xtovsizligi tarbiyachiga ba'zan bolalar harakatdagi noaniqliklarni bartaraf etishda imkon bermaydi; u har bir bolani kuzatib boradi va bu vaqtda mashqlarni bajarilishini qisqa tarzda baholashi yoki ogohlantirishi mumkin. Shu bilan birga harakat – potok usulini ko'nikmalarni takomillashtirishda qo'llash bolalarda tezkorlik, ephillik, kuch, chidamlilik va fazoda mo'ljal olish kabi jismoniy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi [1].

Katta va tayyorlov guruhlarda guruh usuldan foydalaniladi. U mashg'ulotda tarbiyachining bolalarni o'rgatish jarayoni va bolalarning avval orttirgan harakat ko'nikmalarini takomillashtirish bilan qo'shib olib borilgan hollarda qo'llaniladi. Bunda bolalarning bir guruhi tarbiyachi rahbarligida biror-bir harakatga o'rgatiladi, ikkinchi guruh bolalari (yoki ikkita katta bo'lmagan guruh) esa bu vaqtda boshqa mashq turini mashq qiladilar (takroriy). O'zlariga avvaldan tanish, biroq turli mashqlarni (to'p o'yini, tirmashib chiqish, muvozanat saqlash va boshqalar), shuningdek ijodiy topshiriqlarni bajaradigan ikki yoki uch guruh bolalar bo'lishi mumkin.

Tarbiyachi bir guruhni bevosita o'rgata borib, barcha shug'ullanuvchilarni ham e'tibordan qochirmaydi, bolalarga harakatlari to'g'riligini, tartib, xatti-xarakatlarini o'zlari nazorat qilib borishlarini taklif etadi. Mashg'ulot shunday tashkil etilganda bolalarda mas'uliyat, o'zini tuta bilishi, topshiriqni barcha uchun umumiy ish kayfiyatini buzmagani holda mustaqil bajarish malakasi, o'z ko'nikmalarini ongli ravishda takomillashtirish tarbiyalanadi va shuningdek, mashg'ulot davomida butun guruhning xarakat aktivligi va yuqori zichligini saqlash imkoniyati yaratiladi.

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

Mashg'ulot jarayonida har bir bola o'ziga berilgan topshiriqni tarbiyachi nazorati ostida mustaqil bajarayotganida individual usuldan foydalanish mumkin. Bunday usul tarbiyachining alohida e'tiborini, bolalarni yaxshi uyushtirishni, barchani aktiv kuzatishga jalb etish va topshiriqlar bajarilishining to'g'riligini analiz qilishni, mashqlarni tarbiyachi chaqirig'iga ko'ra qayta bajarishga tayyor turishni talab etadi [3].

Mashg'ulotda bolalarni uyushtirishning ko'rsatib o'tilgan usullarining har biridan foydalanish tarbiyachi qo'ygan vazifalarga, mashg'ulot o'tkaziladigan sharoitga va ularni amalga oshirishga bog'liq. Bolalarni mashqlarga o'rgatishda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari samaradorligini oshirishga imkon beruvchi tashkil etishning turli aralash usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida mashg'ulotning kirish qismi organizmni asta-sekin ishga ko'nikishiga va bolani mashg'ulotning asosiy qismiga tayyorlovchi psixik funktsiyalarning aktivlashishiga yordam berishi ko'rsatib o'tilgan edi. Mashg'ulot asosiy qismining boshida bolalarga juda qattiq diqqatni talab etuvchi mashqlar beriladi. Yangi harakat faoliyatiga o'rgatishda bolada uning dastlab obrazi, harakat tasavvuri vujudga keladi. Bu vazifani tushunib olish, mashq elementlarining tarbiyachi tomonidan bajarilish izchilligi, uning mashqni bajarish usullarini ko'rgazmasiz izohlash va tushuntirish bilan bog'liq. Shundan so'ng bolalar mashqni qaytadan mustaqil bajara boshlaydilar. Bu vaqtda mashqni iloji boricha aniqroq bajarishga harakat qilib bola o'z irodasini (aqliy va jismoniy) namoyon etadi. Bularning barchasi nerv sistemasining zo'riqishiga va organizmning psixik va fiziologik funktsiyasining oshishiga olib keladi. Shuning uchun bunday jarayon juda davomli bo'lishi kerak emas.

Shunday ekan, mashg'ulot yuklamalarini me'yorlash, bolani bir xil faoliyatdan ikkinchisiga jalb etish va ish hamda dam olishni muntazam almashtirib turish qanday rol o'ynashi o'z-o'zidan ma'lum bo'lib qoladi.

Bolalar yangi mashqlarni o'zlashtirib olganlaridan keyin, ularga takroriy, kam kuch sarflab bajariladigan mashqlar beriladi. Bolalar tanish mashqni bajarishdan oldin tarbiyachining og'zaki ko'rsatmasini tinglaydilar va shundan keyin harakatlarni qaytadan bajaradilar. Jismoniy tarbiya yo'riqchisi tomonidan ko'rsatma berishga sarflangan vaqt bolalarning tafakkur faoliyatini aktivlashtirishgan holda muskul faoliyatiga dam beradi. Bu mashqlarning bajarilishi bolaning vazifaga nisbatan ongli munosabati saqlanishini ko'zda tutadi, biroq hosil qilingan sistema, ularning avtomatlashgani tufayli harakatli faoliyatni bajarish usuliga e'tiborni talab etmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bular barchasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishda ta'lim metodlaridan to'g'ri va samarali foydalanish natijasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ruzimbaevich N. A., Ruzimbaev M. A. METHODOLOGICAL METHODS OF TEACHING CHILDREN FOR MOVEMENT ACTIVITIES IN THE PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION CLASSES //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – T. 2. – №. 04. – С. 313-322.

2. Нуруллаев А. Р., Гафурова М. Ю., Мансуров Ш. Ш. Деление спортивных занятий на периоды //Педагогическое образование и наука. – 2019. – №. 6. – С. 153-155.

3. Нуруллаев А. Р. Основные формы и сущности экономической демократии //Молодежь XXI века: образование, наука, инновации. – 2017. – С. 227-228.

4. Nurullaev A. R. Methods of developing endurance in students through the use of folk games in physical education classes //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 11. – С. 520-524.

5. Ruzimbaevich N. A., Ruzimbaev M. A. RESEARCH PARK. – 2021.

6. Нуруллаев А. Р. РЕАБИЛИТАЦИЯ СПОРТСМЕНА //Рекомендовано к изданию Советом по качеству УралГУФК Протокол № 8 от 14 мая 2018 г. – 2018. – С. 213.

1. Karomatovich I. A. PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL SUPPORT OF YOUNG TEAM ATHLETES //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 02. – С. 1011-1016.

2. Ibragimov A. K. DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //E-Conference Globe. – 2021. – С. 333-338.

3. Karomatovich I. A. METHODS OF TEACHING CHILDREN FOR MOVEMENT ACTIVITIES IN THE PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 1. – С. 242-249.

4. Ibragimov A. K. Catalog of training tasks for training special endurance of young girl handball players. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. Year: 2020, Volume: 10, Issue: 11. P: 486-492. DOI: 10.5958/2249-7137.2020. 01410. X.

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

5. Narzullayev, Farrux. "Qizlar sporti yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan qizlarning yengil atletika darslarida kuch siaftlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 1.1 (2020).
6. Ashrapovich, N. F. (2021). Determination of physical development of primary school students through national movement games. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.
7. Akmalovich, Dustov Bakhtiyor. "Acmeological peaks of a sports teacher and coach." *Middle European Scientific Bulletin* 11 (2021).
8. Akmalovich, D. B. (2020). Organization of independent work of students in the process of physical education. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(11), 120-123.
9. Safarova Rokhat G. Ways and factors of optimization of the content of general secondary education in today's world // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. 2012. №2 (eng). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ways-and-factors-of-optimization-of-the-content-of-general-secondary-education-in-today-s-world> (дата обращения: 09.05.2022).
10. Мухитдинова Н.М. Абитова Ж.Р. Механизмы интеллектуального развития дошкольников с помощью физических занятий // Проблемы педагогики. - 2020- № 3 (48) с 79-81
11. Мухитдинова Н.М. Методология физических упражнений и игр в дошкольных образовательных организациях // Проблемы науки-2020-№9 (57) с 81-83
12. Мухитдинова Н.М. Эшов Э. Improvement of psychology and pedagogical process on physical training // Intellectual Archive 2018 с 93-96
13. Djurayeva Maxasti Zokirqizi "The emotion training system for atudents of preschool education for sports gymnastics sports competitions" 88-101 betlar. *International Journal of Advanced Research in Monagement and Social Sciences*. Vol.1 №2 February 2022
14. Джураева Махаста Зокировна "Характеристика эмоционально –волевой готовности личности к спортивной деятельности" 169-171 betlar. Россия-Таджикистан –Узбекистан. молодежь и развитие духовной культуры общества: актуальные проблемы и перспективы их решения. 22апреля 2022г.
15. Маъмуров Б. Б. Бўлажак ўқитувчиларни шахсга йўналтирилган таълим-тарбия жараёнини лойihalашга тайёрлашда қўлланиладиган тамойиллар. Современное образование (Узбекистан), 2017. <https://cyberleninka.ru/article/n/b-lazhak-ituvchilarni-shahsga-y-naltirilgan-talim-tarbiya-zharayonini-loyi-alashga-tayyorlashda-llaniladigan-tamoyillar>
16. Mamurov B. B. The Need to Prepare Future Teachers to Design a Student-Centered Educational Process. Eastern European Scientific Journal, 2017. <http://journale.auris-verlag.de/index.php/EESJ/article/viewFile/600/596>
17. Мамуров Б.Б., Махмудов М.Х. Акмеологическая составляющая образовательной культуры учителя. философские и методологические. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=36679921>
18. В Mamurov, A Mamanazarov, K Abdullaev, I Davronov. Acmeological Approach to the Formation of Healthy Lifestyle Among University Students. III International Scientific Congress Society of Ambient ..., 2020. <https://www.atlantis-press.com/proceedings/isc-sai-20/125937241>
19. ББ Мамуров. Акмеологический подход к воспитанию молодого поколения в наследии предков. Педагогическое образование и наука, 2016. http://www.manpo.ru/manpo/publications/ped_obraz/n2016_03.pdf#page=147
20. Маъмуров Б.Б. Маманазаров А.Б. Условия развитие у будущих учителей навыков проектирования учебного процесса на основе акмеологического подхода. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=37269472>
21. Файзиев Я. З., Зиёев Д. Я. У. краткий исторический обзор развития физического воспитания и спорта //Academy. – 2020. – №. 9 (60).
22. Файзиев Я. З., Кузиева Ф. Эффективности использования национальных средств физического воспитания в учебном процессе //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 3-1. – С. 95.
23. U. A. Fayzieva, M. T. Khikimova. Conditions of effectiveness of pedagogical communication. <https://mbukcksig.ru/en/usloviya-uspeshnogo-pedagogicheskogo-obshcheniya-ego-funkcii-organizaciya.html>
24. Fayziyeva Umida Asadovna Saidnazarova Gulshan Bolta qizi. "Ta'lim texnologiyalari" fanidan seminar mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha metodik ko'rsatma. http://213.230.96.51:8090/files/ebooks/Iqtisodiyot/TALIM_TEXNOLOGIYALARI.pdf